

FARZAND TARBIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

*Du'ysenova Gulzada Amaniyazovna,
Qurshbekova Mexriban Pazilbekovna*

Qoraqalpog`iston Respublikasi

Nukus shahri 20 va 27 – sonli maktab psixologlari

Insonning tabiatini o‘zgartiradigan, uning shaxsini tarkib topishiga ta’sir qiladigan kuch ijtimoiy omillar yoki boshqacha qilib aytganda, jamiyat ishlab chiqarish kuchlari hamda ishlab chiqarish munosabatlarining o‘sishi va o‘zgarishidir. Bundan tashqari yana inson shaxsining tarkib topishiga ta’sir qiluvchi kuchli omil -inson orttirgan tajribalarining tarbiya vositasi orqali bolalarga berilishidir. Inson shaxsi juda murakkab psixologik kategoriya bo‘lib, u kishining individual hayoti davomida ma’lum konkret omillarning ta’siri ostida sekin-asta tarkib topadi. Ilmiy manbalarga qaraganda inson shaxsi uchta faktorlar ta’sirida tarkib topadi. Ulardan birinchisi, odam tug‘ilib o‘sadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta’siri bo‘lsa, ikkinchisi, odamga uzoq muddat davomida sistemali ravishda beriladigan ijtimoiy ta’lim-tarbiyaning ta’siridir va nihoyat, uchinchisi odamga nasliy yo‘l bilan beriladigan irsiy omillarning ta’siridir. Insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi, ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal yetuvchi ahamiyatga egadir. Shaxs shakllanishida u yashayotgan muhit, kishilar, jamiyatning roli juda kattadir.

Bola shaxsining tarkib topishiga ta’lim – tarbiyaning ta’siri deganda, albatta, birinchi navbatda tarbiya muassasalarida, ya’ni bog‘cha, maktab, internat, litsey va kollejlarda beriladigan ta’lim-tarbiya tushuniladi. Biroq, bundan oilada bolaga beriladigan ta’lim-tarbiya mutlaqo mustasno emas. Oiladagi umumi ijtimoiy muhitdan tashqari, oilada beriladigan ta’lim-tarbiyaning ham roli kattadir. Bola tarbiyasi bilan sistemali shug‘ullanadigan va umuman shug‘ullanmaydigan oilalarda ulg‘aygan farzandlar orasidagi farq juda katta bo‘lib, bu hol ularning hulq-atvorida, o‘zini tutishida, insonlar bilan muloqatida yoqqal namoyon bo‘lib turadi.

Farzandga tarbiya berish jarayonida g‘amxo‘rlikning funksiyasi kattadir. Bolalar befarq ota-onalarga nisbatan g‘amxo‘r ota-onaga ko‘proq taqlid qiladilar. G‘amxo‘r ota-onalar bolaning salbiy xulq-atvorini qo‘llab-quvvatlamaganda, bola o‘z hatti-harakatlarining oqibatini ertaroq anglaydi. Tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishda g‘amxo‘rlik bilan bir qatorda yaxshi ko‘rishga asoslangan intizomga rioya qilish zarurdir. Bu bola bilan doimiy muloqotni tushuntirishni, muhokama qilishni, agar bolaning xulq-atvori shuni talab qilsa, og‘zaki tanbeh berishni, yaxshi xulq-atvor uchun taqdirlashni nazarda tutadi.

Tarbiya jarayonining texnologiyasini quyidagicha sharhlash mumkin:

1. Tarbiyalanuvchini alohida takrorlanmas, individuallik sifatida tushunmoq lozim. Uning ehtiyojlari strukturasini aniqlash kerak.
2. Ijobiy emotsiyalar vositasida ijobiy xulq-atvor odatlarini shakllantirmoq kerak. Ong ham, iroda ham motivlar ierarxiyasini shakllantira olmaydi. Zotan, bir ehtiyojning o‘rnini faqat boshqa ehtiyojgina egallashi mumkin.
3. Shu ehtiyojlarni qondirish vositalari bilan bolani qurollantirish zarur. Biz albatta har bitta bolaga alohida etibar, g’amxorlik qilish bilan bir qatorda bilimli bo’lish va tartib intizomiga ham amal qilishi borasida biz kattalar ularga namuna bo’la olishimiz zarur.

Bolalarga ta’lim-tarbiya berishda pedagogika va psixologiya, psixologiya, yosh va pedagogik psixologiya, bolalar psixologiyasi fanlarining dolzarb muammolaridan biriga aylanib borayotganligi shubhasizdir. Zotan, kelajagi buyuk davlatni bonyodga keltirish uchun har qanday davlatning fuqarosi dastlab oilada va so‘ngra mакtabgacha ta’lim muassasida mukammal tarbiyalanishi, shaxs sifatida to‘laqonli shakllanish imkoniyatlariga ega bo‘lishi lozim bo‘ladi. Shu jihatdan qaraganda insonning shaxs sifatida shakllanishida uzluksiz ta’limning asosiy bo‘g‘inlaridan biri hisoblangan ta’lim muassasasi muhim o‘rin tutadi. Ingliz filasofi DJ.Lokkning fikriga ko‘ra “bolaning qalbi nimani xohlasa yozish mumkin bo‘lgan oq qog‘ozga o‘xshaydi” bu oppoq qog‘ozni yaxshi narsalar bilan ham yomon narsalar bilan ham to‘ldirish ota-onaga bog`liq. Bola tarbiyasida ota-onan birdek masulyatga ega bo‘lishi lozim. Faqatgina ona yoki ota tarbiyasi bola tarbiyasining shakillanishida noto‘g‘ri tasir ko‘rsatishi ham mumkin.

O’quvchi ilm olishida ota-onan oilada birinchi namuna, yo’lboshchi bo‘lishi kerak. Bolaning dunyosi oiladan boshlanadi. Va o‘qish odati birinchi navbatda oilada paydo bo‘ladi. Ota-onalar va ularning farzandlari qo‘lidagi yaxshi kitob bu oilada o‘qish muhiti va ma’naviy birlik hukm surishi uchun yaxshi belgidir. Buning uchun ota ham ona ham kitob bilan do’st bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Bolaning o‘qish hayoti uchun oilaviy o‘qish alohida ahamiyatga ega. Voyaga etgan odamning o‘qishini tinglash, u bilan kitob rasmlarini tomosha qilish bolada faol o‘ylash, qahramonlar haqida qayg‘urish, voqealarni davomini kutish, o‘z tajribasi va boshqalarning tajribasi o‘rtasidagi aloqalarni farqlash va ularni bir – biriga og‘lashni o‘rganadi. Birgalikda o‘qish ota-onan va bolani bir-biriga yaqinlashtiradi, ma’naviy muloqotning noyob va quvonchli daqiqalarini rag‘batlantiradi va to‘ldiradi, bolada mehrga tola munosabat va mammunlikni hamda mehribon qalbni tarbiyalaydi.

Oilaviy o‘qish an‘analari oilaviy ta’lim tizimining juda muhim qismidir. Oila davrasida jam bo‘lib kitob mutolaa qilishni eskilik deb o‘ylamang, chunki planshet, televizor, kompyuter va boshqa ma’lumot manbalari birlikda o‘qilgan kitob zavqidek zavq va taassurot qoldirmaydi.

Bizning xalqimiz juda ham bolajon xalq bo‘lib, bolaning tarbiyasiga alohida e’tabor qaratadi, o‘qib bilim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratilganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Kelajak avlodni barkamol ablid bo‘lib ulg‘ayishida oila muhiti, ota-onalarning pedagogik psixologik bilimlarini yetarli bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. SH.A.Do’stmuhamedova, X.A.Tillashayxova, G.Baykunusova. Umumiy psixologiya T. 2020. – 285-290b.
2. Nishanova.Z.T., G.K.Alimova. Psixologik xizmat. Psixokorreksiya. Toshkent - 2019. – 103 b.